

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“MASHINASOZLIK” fakul`tet

“MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” kafedra

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO`YICHA

TUSHUNTIRISH XATI

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: *KZ-4M markali pillani pishitish
dastgoxini loyixalash.*

Bitiruvchi “TMJ” yo`nalishi,

4 bosqich 2- gurux tolibi: _____ *Mirzaqambarov X*

Fakul`tet dekani: _____ *dots. T. Almatayev*

Kafedra mudiri: _____ *dots. Radjibayev P*

Diplom loyixasi raxbari: _____ *dots.Raximov A*

Maslaxatchilar:

Konstruktorlik qismi _____ *ass. Daliyev Sh*

Texnologik qismi _____ *ass. Daliyev Sh*

Xayotiy faoliyat xavfsizligi _____ *dots.Umarova M*

Iqtisodiy samaradorlik _____ *dots.Sarimsaqov A*

Taqrizchi: _____

Andijon-2012 yil

Andijon mashinasozlik instituti
Mashinasozlik fakul'teti
Mashinasozlik texnologiyasi kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAJARISH BO`YICHA

TOPSHIRIQ

Bitiruvchi Mirzaqambarov Xusanboy
(talabaning familiyasi, ismi-sharifi)

1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: K3-4M markali pillani pishitish dastgoxini loyixalash.

Institut bo'yicha 2011 yil «07» dekabrda 293-son buyruq bilan tasdiqlangan.

2. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun ma'lumotlar Pilla
pishitish dastgoxining chizmasi va pasporti.

3. Tushuntirish xatida keltiriladigan ma'lumotlar (80-90 varaq A4 formatda qo'l yozma tarzida yoki 50-60 varaq komp'yuterda yozilgan matnlar):

a) Asosiy qismi bo'yicha Kirish, adabiyotlardan ma'lumotlar; mavzuni asoslash; konstruktorlik qismi: mashinani tuzilishi va ishlash tartibi

b) Texnologik qism bo'yicha detalning tayyorlash texnologik jarayonini ishlab chiqish.

v) Hayotiy faoliyat xavfsizligi qismlari bo'yicha.
Texnika xavfsizligi va xayotiy faoliyat xavfsizligidan qoidalarini joriy qilish.

g) Iqtisodiy qismi bo'yicha : iqtisodiy samaradorlikni aniqlash

4. Bitiruv malakaviy ishining chizmalari ro'yhati (A2 formatda 5-6 list vatman):

- a) Mashina, dastgoh yoki jihozni umumiy ko'rinishi chizmasi;
- b) Uzel yoki yig'ma birlik va detallarini chizmalari;
- v) Detal tayyorlash texnologik jarayoni chizmalari.

5. Bitiruv malakaviy ishi qismlari bo'yicha maslahatchilar*:

№	Bitiruv malakaviy ishi ning qismlari	Boshla- nish muddati	Tugalla- nish muddati	Imzo	Maslahatchi- ning familiyasi
1	Asosiy konstruktiv qismi a) Kirish b) Adabiyotlardan ma'lumot v) Mavzuni asoslash g) Takomillashgan yoki yangi yaratilgan mashinaning tuzilishi va ishlashi	01.03.12y 10.03.12y 04.04.12 y 11.04.12 y	10.03.12 y 02.04.12 y 09.04.12 y 07.05.12 y		<i>ass Sh. Daliyev</i>
2	Texnologik qismi Detalni tayyorlash texnologik jarayonini ishlab chiqish	09.05.12 y	25.05.12 y		<i>ass Sh. Daliyev</i>
4	Hayotiy faoliyat xavfsizligi qismi	26.05.12 y	30.05.12		<i>M. Umarova</i>
5	Iqtisodiy qismi	01.05.12 y	20.06.12 y		<i>dots. A. Sarimsaqov</i>

Izoh: * - Bitiruv malakaviy ishi rahbarining taklifiga binoan, mutaxassis chiqaruvchi kafedra bitiruv malakaviy ishiga rahbarlik qilishga ajratilgan vaqt limiti hisobidan loyihaning ayrim bo'limlari bo'yicha maslahatchilarni taklif etishi mumkin.

6. Topshiriq berilgan sana 10.12.11 yil

7. Tugallangan bitiruv malakaviy ishini topshirish sanasi 22.06.12 y.

Bitiruv malakaviy ishi rahbari: dots. Raximov A _____
F.I.SH. imzo

Topshiriqni bajarish uchun qabul qildim: Mirzaqambarov X _____
F.I.SH. imzo

MT kafedrası mudiri: dots. P. Radjibaev _____
F.I.SH. imzo

Mundarija.

1. Kirish.....	
2. Asosiy qism	
2.1. Adabiyotlar taxlili.....	
2.2. Mavzuni asoslash.....	
2.3. Konstruktorlik qism.....	
2.4. Mashinaning ishlash printsipli.....	
3. Texnologik qism.	
3.1. Qo`yimlar xisobi.....	
3.2. Kesish tartibini xisobi.....	
4. Xayotiy faoliyat xavfsizligi.....	
5. Iqtisodiy qism.....	
6. Xulosa.....	
7. Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	
8. Ilova.....	

1. Kirish.

Pillachilik qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, to'qimachilik sanoatini xom-ashyo bilan ta'minlaydi[2].

Respublikamiz xalq xo'jaligi rivojlangan va axolining turmush darajasi yaxshilangan sari uni tabiiy ipakdan tukilgan turli kiyimlarga bo'lgan ehtiyoji xam ortib bormoqda. Tabiiy ipakdan qimmatli, pishiq gazlamalar to'qilib, undan aviatsiya, kosmonavtika sanoatida, tabobatda, radiotexnika va boshqa soxalarda keng foydalaniladi. Shuning uchun Respublikamizda ipakchilikni yanada rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda[5].

Xozirgi zamon ipakchiligining vatani janubi-sharkiy Osiyodir. Xitoyda eramizdan qariyb 3000 yil ilgarirok tabiiy ipak tayyorlash bilan shug'ullanilgan. O'rta Osiyoga ipakchilik IV asrda kirib kelgan. Ammo keyingi yillardagi tekshirishlarga qaraganda Movarounnaxrda ipakchilik juda qadimdan (eramizdan oldin) mavjudligi tasdiqlanmoqda[7].

Ipak qurtining bir necha turlaridan ipak olinadi. Bu turlardan xonakilashtirilgan tut ipak qurti faqat tut bargi bilan oziqlanadi va uzunligi 1000-1500 m dan ortiq ingichka toladan iborat pilla o'raydi.

Yuqori sifatli va rang-barang shoyi matolar dunyoda, ayniqsa Sharqda qadim zamonlardan mashxurdir. Ipak Xitoydan Markaziy Osiyo orqali Yevropa mamlakatlariga ham olib borilgan. Natijada keyinchalik «Buyuk ipak yo'li» deb atalgan savdo va madaniy aloqalar yo'li-madaniyatni birlashtiruvchi yo'l vujudga kelgan[11].

Buyuk Amir Temur xokimlik qilgan davrda davlatning butun xududida, ayniqsa Markaziy Osiyoda «Buyuk ipak yo'li» bo'lib joylashgan Samarqand, Shaxrisabz, Buxoro, Turkiston shaharlari va Farg'ona vodiysida pillakashlik, ipakchilik va shoyi matolar to'qish san'atining rivojlanib, kiyim-bosh uchun ipakka zar va kumush iplar aralashtirib to'qilgan shoyi gazlamalar paydo bo'lgan. Bunday kiyimlar «Buyuk ipak yo'li» orqali Yevropa mamlakatlariga tarqalgan[5].

Taxminan VII asrda ipakchilik Yevropada paydo bo'lgan, o'tgan asrning boshlarida esa Turkiya, Italiya va Frantsiya mamlakatlarida rivojlanib, yuqori pog'onalariga ko'tarildi. Lekin tut ipak qurtining ommaviy kasalligi (pebrina) tarqalishi natijasida XIX asrning o'rtalarida Frantsiya ipakchiligi katta talofatlarga uchradi.

XX asrning boshlarida Yaponiya xom ipak tayyorlashda dunyoda birinchi urinni egalladi va ikkinchi jaxon urushi boshlanishi oldidan 360-375 ming tonna xom pilla tayyorlashga erishdi[7].

Ipakchilik deganda pilla yetishtirish uchun zarur bo'lgan murakkab jarayonlar majmuasi tushunilib, turtzorlar barpo qilish, qurt urug'ini ochirish (urugni jonlantirish), qurt boqish, naslchilik ishlari; qurt urug'ini tayyorlash (qurt urug'i yetishtirish), pillaga dastlabki ishlov berish, (g'umbakni o'ldirish va pillani quritish) ipak qurti kasalliklari, zararkunandalari va ularga qarshi kurash choralari ishlab chiqiladi[12].

Pillachilik qishloq xo'jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri-paxtachilik bilan juda uyg'unlashib ketgan. Tut daraxtlari ipak qurti uchun ozuqa manbai bo'lishi bilan birga paxtazorlarni, g'o'zalarni garmse va boshka ta'sirlardan himoyalaydi, sug'orish kanallarining qirg'oqlarini mustaxkamlaydi[11]. Qishloq xujaligi tarmog'ida fermer xo'jaliklarini ko'paytirish ipakchilikni yanada rivojlantirish imkoniyatini tug'diradi.

Keyingi yillarda Respublikamizda pillachilik soxasi bo'yicha kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e'tibor berilmoqda. Toshkent Davlat agrar universitetida ipakchilik fakul'teti va Respublikamizning qishloq xo'jalik institutlarini barcha agronomiya, iqtisod, buxgalteriya xisobi va fermerchilik fakultetlarida ipakchilik asoslari fani uqitilmokda[1].

Kadrlar tayyorlash ishining muvaffaqiyati o'quv jarayonlarining to'g'ri tashkil etilishiga va ta'lim berish vaqtida ishlab chiqarishdagi ilg'orlar tajribalaridan hamda ish usullaridan keng foydalanishiga ko'p jixatdan bog'liqdir[2].

1998 yil 30 martda Uzbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni va Uzbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1998 yil 3 aprelda chiqargan «Respublika pillachilik soxasini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori matbuotda e'lon qilindi.

Bu farmon va qarorda Respublika pillachilikni yanada rivojlantirish choralari aniq ko'rsatib berilgan, bo'lib Respublikada pilla va ipak tayyorlash yagona «O'zbek ipagi» uyushmasiga birlashtirilib, uning raisi O'zbekiston Respublikasi vaziriga, uning birinchi o'rinbosari, vazirning birinchi o'rinbosariga, rais urinbosarilari- vazir urinbosarlariga tenglashtirildi. Respublikamizda ipakchilik yanada rivojlanishiga katta imkoniyatlar yaratildi[5].

Adabiyotlar taxlili.

Mamlakatimiz xalq xo'jaligi uchun turli xil qishloq xo'jalik maxsulotlari kiradi. Shunga ko'ra kolxoz va savxozlarimizda don, paxta, zig'ir, lavlagi, jun, pilla, sabzavot, kartoshka va boshqa maxsulotlarni yetishtiradi. Bu maxsulotlardan ba'zilar, masalan, paxta, jun, pilla yengil sanoatimiz uchun xom ashyo bo'lsa, ba'zilar aloxida oziq-ovqat sifatida zarur.

Respublikamiz yirik xo'jaligining ustunliklaridan jamoat ixtiyoriga berilgan yer-suvdan, moddiy va mehnat vositalaridan to'la foydalanib, paxtachilikni xar taraflama rivojlantirish bilan birga, ekinlar xosilini jamoat chorvachiligi va ipakchilik maxsulotlarini, xo'jaligining serdaromadligini yildan-yilga oshirib bormoqda. Masalan, O'rta Osiyo pilla hosilining yarmidan ko'pini O'zbekiston Respublikasi O'rta Osiyo pilla etishtiradigan asosiy bazasi xisoblanadi.

Ipakchilikni, paxtachilik va boshqa dehqonchilik tarmoqlari bilan birga qo'shib olib borishda ipakchilik ishlarini, birinchi navbatda barg tayyorlash, qurt boqish, pillani dastalardan terib olish kabi ishlarni mashinalashtirish mehnat sarfini ancha kamaytiradi.

Masalan, xashakdan sun'iy dasta tayyorlash dasgoxini yilning xar qanday faslida ishlatish, binobarin, qishda (kolxozchilar dala ishlarida bo'shagan vaqtlarida) dastalarni tayyorlab qo'yish mumkin.

Ma'lumki, dastalardan pillani terib olish sermehnat ish. Eng yaxshi ishlovchi ishchilar bir kunda zo'rg'a 15 kilogramdan pilla teradilar.

Pillani dastalardan terishda uni rangiga qarab sortlarga xam ajratiladi, yaroqsiz pillalar aloxida yig'iladi va ayni vaqtda pillalar soslardan xam tozalanadi. Pilla 1-2 kun ichida tez yig'ishtirib olinishi zarurligidan, bu ishga birdaniga ko'p ishchilar jalb qilinadi. Endi bu sermehnat ish pilla terish mashinasida bajariladi. Bu mashinada ikki kishi ishlaydi.

Mashina dastasi qo'lda aylantirilganda xar soatda 31 klogram dastalardan terib, tozalab olish mumkin. Demak pilla terish ishi qo'lda bajarilganiga qaraganda 8-10 marta tezlashadi. Bu mashina elektr kuchi bilan xarakatga keltirilda uning ish unumi yanada ko'p bo'ladi.

Ipakchilik va to'qimachilik ishlarini mashinalashtirish, elektrlashtirish qurtlarni tez yotishtirish usulida boqishga o'tish qurtboqar zonalarini kattalashirishga imkon

beradigan yirik qurtxonalar qurish xamda qurt boqish ishini avj oldirish xam juda katta ahamiyatga egadir. Qurtlarni yoz davomida uzluksiz boqish usuli ikki xil bo`ladi.

Birinchi usulda qurtlar tuxumdan ketma-ket bir necha muddtda ochiriladi. Bunda daslabki ochirilgan qurtlar beshinchi, keyingi ochirilsgani to`rtinchi, bundan keyin ochirilgani uchunchi va yanada keyinroq ochirilgani birinchi yoshda bo`ladi. SHunday qilib qurtlar ketma-ket etishib, butun yoz bo`yi oldinma-keyin pilla o`rayveradi.

Ikkinchi usulda – bir vaqtda ochirilgan qurtlar pilla o`rab bo`lgandan keyin ikkinchi grupp qurtlarni ochirishga kirishiladi. Bunda bir qurt bqish bilan ikkinchi qurt boqish o`rtasida ozmi-ko`pmi uzilish bo`ladi. Bu xolda yoz bo`yi 2-3 martagina qurt boqish mumkin.

Ipak qo`rtini butun yoz bo`yi ko`p marta boqish ipakchilikda qurt tutishning eng ilg`or prgressiv usuli bo`lib, ipakchilikni, paxtachilik va qishloq xo`jaligining boshqa tarmoqlari bilan birga qo`shib olib borish uchun katta imkoniyat ochib beradi. Qurtni bu usulda boqqanda ko`klamgi ish tig`izligi kamayadi, ya`ni ko`klamda boqiladigan qo`rtning bir qismi yoz va kuzga ko`chiriladi. SHu bilan birga bir binoda qurt bir yilda bir marta boqilib, kolzoxning maxsus qurt xonalaridan va qurt boqishga belgilagan boshqa binolardan to`la foydalanish imkoniyati tug`iladi.

Tirik g`umbakda 93% pilla po`stida 5% nam bo`ladi. Pillaning sifati sotib olish punkiti laboratoriyasida aniqlanadi. Bunday laboratoriya uchun yorug`, quruq va keng xona ajratilib, unda pillaning sifatini aniqlash uchun jixoz va alkaratlar xamda pillani kovlarga ajratuvchi laborantlar uchun zarur bo`lgan asbob-uskunalar joylashtiriladi.

Pillaning bir sutkalik qurishi 1.25% da belgilangan.

Daslabki ishlov bezashda xom pillalar qator yoyilib saqlanadi.

Korxona pillani dastlabki ishlash, g`umbakni o`ltirish va quritish ishlarini pilla keltiril gan kuni amalga oshiradi; bunda pillalar ishlanmagan xolda 48 soatdan ortiq to`lmasligi kerak.

Pillani daslabki ishlash uni quritishdan iborat.

Quritilgandan keyin pillaning nami 15% dan ortiq bo`lmasligi kerak. Bunday pillalar ipak yigirish fabrikasining omborida uzoq vaqt saqlangan ham mog`orlanmaydi.

Pillani oldin bug`lab keyin soyada quritishda u avvl bug` kamerasida bug`lanadi, bunda g`umbak temperaturasi 78° S (gradus) bo`ladi. 18-20 minutda o`ladi. G`umbagi o`ldirilgan pillalar soya joyga qurulgan so`kchaklarga 10 sm qalinlikda yoyib qo`yiladi.

Bug`da g`umbagi o`ldirilgan pillalarning bir tekis qurishi uchun birinchi o`n kun ichida ular xar sutkada bir marta, qolgan kunlarda ikki-uch sutkada bir marta belkurak bilan qorishtirib turiladi: bunda pilla qalinligi asta sekin 5 sm dan oshirilib 40 sm ga etkaziladi.

Qora dog`li (qorakachiq) pillalar bug`da o`ldirilmaydi. Ular navli pillalardan 100-150 m chetda oftobda quritiladi.

Pilla g`umbagini o`ldirish uchun zarur miqdoridagi bug` xar qaysi kamerada bo`ladigan ochiq bug` qozondagi suvni qayatish yo`li bilan olinadi.

Deometri 1.0-1.1 m keladigan bunday qozonning og`zi pol satxi bilan barobar qilib o`rnatiladi.

Termometrning kameri polidan baland qo`yilishi 1.2-1.4 m.

Bug` kamerasidagi kakopetkalarga o`rnatiladigan tortma yashiklarga solinadigan pilla qalinligi 7-10 sm

O`ldirish kamerasidagi nazorat yashiklarga solinadigan sortli pilla soni 6-8 dona.

Ko`chirib yoriladigan nazorat yashik xajmi 20-30 sm.

Issiqlik belshilangan temperaturaga etgandan keyin pillaning tayyorligini birinchi marta tekshirish 10-12 minut.

Pilla tayyorligini bilish uchun keyingi tekshirishlar 3-6 minut.

Bug`lab o`ldirish kamerasidan olingan pillani tortma yashiklarda saqlash 8-10 minut.

Pillani bug`lash va quritishda ishlovchi ishchilarning mehnati belgilangan ishlab chiqarish me`yori bo`yicha, ishbay priksiki asosida tashkil etilgan.

Pillani bug`lash va quritishda uchta birigada tashkil etilib, bu birigadalar 1 t pillani quritguncha 33.2 kishi soati sarflaydi.

Birinchi birigada 1g kishi bo`lib, u quydagi operatsiyalarni bajaradi: uchta ishchi pillani yashiklarga solib vaqtinchalik saqlash joyiga olib keladi; ikkita ishchi sortli pilla aralashmasidan brak pillalarni ajratib oladi;

Beshta ishchi pillani vaqtinchalik saqlash joyiga bo`sh tortma yashtklar keltirib, uni pilla bilan to`ldirib, bug`lab o`ldirish kamerasining vakonetkalari yoniga keltiradi va vakonetkalarni g`umbagi o`ldirilgan pilladan bo`shatadi, so`ngra undagi g`umbagi o`ldirilgan pilla slingan tortma yashiklarni quritish sokchaklarga tashlab ketiladi:

Ikkita ishchi tortma yashiklarni bo'shatgan vagoketkaga joylab, bu vagoketkalarni pillani bug'da o'ldirish kamerasiga joylaydi va bug'lanib bo'lgach ularni kameradan chiqarib oladi.

Ikkinchi birigada to'rt kishidan iborat bo'lib, pilla quritish xonasidagi sokchaklarga yoyilgan pillalarni belkurak bilan qorishtirib turadi va qora pachoq pillalarni ajratib oladi.

Uchunchi birigada to'rt kishidan iborat bo'lib, pillani fabrikaga topshirish uchun tayyorlaydi.

Texnologik protsesga smena masteri raxbarlik qiladi va u bajarilgan ishni xisoblab boradi: birinchi va ikkinchi brigada ishchilari uchun mehnat g'umbagi o'ldirilgan pilla miqdori bo'yicha xisoblanadi.

Pillani mexnaik yashikli pilla sushulkalarda quritilganda uchta brigada tashkil etilib, ular bitta pillani qurutguncha 29.7 kishi soat sarflaydi.

Birinchi birigada etti kishidan iborat bo'lib, ulardan uchta pillani vaqtinchalik saqlash joyigatashib keltiriladi, ichidagi braklari ajratilgan xom pillani

quritish xonasidagi mexanik yashikli so'kchaklarga tashib keltiradi va ularni ustki bo'sh kameralarga ag'dariladi.

Bitta ishchi pillani yuqori kameradan pastki kameraga olib soladi.

Bitta ishchi smenasida o't yoqadi.

Ikkinchi brigada ikki kishidan iborat bo'lib, pilla topshiruvchilardan qabul qilingan sortli pilla aralashmasidagi brak pillani ajratadi.

Uchunchi brigada to'rt kishidan iborat bo'lib, quruq pillalarni standart qoplarga soladi va og'zini tikadi, qoplarga yorlik yopishtiriladi va ularni tortib taxlab qo'yadi.

Pilla quritishdagi texnologik protsesga smena masteri raxbarlik qiladi va birigada bo'yicha bajarilgan ishni xisoblab beradi. Bu birinchi va ikkinchi brigada ishchilari uchun sushilka agregatidan o'tkazilgan pilla miqdori bo'yicha, uchunchi brigada ishchilari uchun esa joylangan va toy-toy qilib taxlangan pilla miqdori bo'yicha belgilanadi.

Pilla quritish agregati o'tli kolorifera dan past bosimli ventelyator dan, shunga mos elektromotor yoki (benzin bilan xarakatga keladigan matordan) benzodivijokdan va

quritish seksiyasi dan iborat: bularni xar birida to'rttadan pilla ortish uchun bittadan xovo kmerasi bor. Bunday pilla sushilkalariing xar birida beshtadan kamerasi bo'lgan 12 tagacha vertikal seksiyalar bor.

Dastlabki to'rtta kamera bir-birining ustiga joylashgan bo'lib bunda pillaga termik ishlov beriladi, eng pastki beshinchi kamera esa sushulkaga issiq xavoni atmosfera xavosi bilan aralashtirib yoborish va bu xavoning kameralariga bir tekis taqsimlanishi uchun xizmat qiladi.

Pillani quritishga kiritishda pilla sushilkasining beshinchi xavo kamerasidagi xavo kamerasidagi xavo temperaturasi quyidagicha bo'lishi kerak:

Faqat birinchi yuqori) kameraga to'ldirilganda 45° ; birinchi va ikkinchi kmerralarga to'ldirilganda 60° uchta kamera pilla bilan to'ldirilganda 70° ;

To'rtta kamera pilla bilan to'ldirilganda $78-80^{\circ}$.

Xar qaysi kamerada oq pilla o'raydigan duragay qurtlardan olingan pilla 3.5 soat saqlanadi bunda pillani quritish uchun xammasi bo'lib 14 soat vaqt sarflanadi. Keyin esa beshinchi xavo kamerasida pillani quritish tempiraturasi $78-80^{\circ}$ bo'lgan xolda undagi pilla 3.9 soatda olib turiladi.

Mexanik yashikli sushilkada pillani isitishda uning qizib ketmasligi uchun SANIISH-F markali avtomatik linyadan foydalaniladi. Bu avtomat linya avtotermoregulyar, yordamchi ventelyator va elektromatordan iborat.

Ventelyator, elektromotor va benzodivijonning aylanish soni maxsus inistruksiyaiga rioya qilingan xolda taxometr yoki aylanish schyoti bilan aniqlanadi.

Ventelyator belgilangan normadan kam aylansa, uning shikivini olib o'miga kichik diometrli shkav qo'yiladi: ventlyatorning aylanish soni normadan oshib ketsa, bu shkib katta diometrli shkiv bilan almashtiriladi.

Quruq pillaning sendiktsion namligi standart bo'yicha 10% belgilanadi.

Pillaning xaqiqiy namligini aniqlashda quydagi usullardan biri qo'llaniladi:

Xavo tempiraturasi 90° bo'lgan kondiktsion aparatda 400 gram pilla namunasini doimiy og'irlikka kelguncha quritish:

Temperaturani avtomatik tarzda to'g'rilaydigan regulyatori bo'lgan quritish shkafida 400 gram pilla namunasini doimiy og'irlikka kelguncha temperaturasini 90° quritish xajmi og'irligiga qarab quyidagicha aniqlanadi: avvalo ipak quritishning zoti va durogay pillasi metri 21 sm balandligi joylanadigan pillaning absalot og'irligi

aniqlanadi: so`ngra shu xajimdagi pilla uchun quruq pillaning xaqiqiy og`irligiga belgilanadi.

TSilindirlik idishga solingan pilla yaxshilab silkitiladi, lekin u qo`l bilan bosilmaydi. Absalot quruq pillaning o`rtacha og`irligi xar mavsumda bir marta aniqlanadi. Buning uchun uni uch marta tortib shundan o`rtacha og`irlik olinadi.

Uch usuldan qaysi biri uchun bo`lmasin pillaning xaqiqiy namligi quydagi formula yordamida xisoblanadi:

$$V = \frac{K_b - C - K_{ab}}{K_{ab} \cdot s} \cdot 100\%$$

Bunda: $K_b - C$ – quruq pilla og`irligi.G.

$K_{ab} \cdot s$ – absalot quruq pilla og`irligi.G

Pilla qurutilgandan keyin uning quruqligini qo`lda aniqlash uchun pilla guruxining turli joylaridan uch beshta pilla olib kesiladi va g`umbagi barmoqlar orasida egiladi. Ezish natijasida g`umbak osonlik bilan mayda-mayda bo`lakchalarga bo`lingach bunday pillalar normal qurigan deb xisoblanadi.

Xamma tabiiy, sun`iy va sintetik tolalar xavoning nisbiy namligiga qarab o`zida ma`lum miqdorda nam saqlaydi.

Toladagi nam miqdori xavodagi nam miqdoriga bog`liq bo`lishidan tashqari shu tolaning kimyoviy tarkibiga xam bog`liqdir.

Tolaning o`ziga nam shimib olish xususiyatiga ularning suvda to`la erigan yoki kolloid xolatida erigan moddalarni (bo`yoqlar va maxsulotlarni pardoqlashda ishlatiladigan sirtki sektivlashtiruvchi moddalar) o`ziga biriktirib olganligini izoxlabgina qolmay, balki tolaning mexanik xususiyatiga, mayinligi, g`ijimlanmasligi va egiluvchanligiga xam ta`sir qiladi.

To`qimachilik maxsulotlarining suvdagi xolati suvning sirt tarangligi va suv bilan maxsulot o`rtasidagi sirtlarning ta`sir etuvchi kuchlari bilan izoxlanadi. Ma`lumki, sirtidagi molekula ichkaridagi molekulalardan farq qiladi. Ichkaridagi molekulalarning butun atrofini o`ziga o`xshash molekulalar o`rab olgani uchun xamma tomondan bir xil ta`sir ostida bo`ladi.

Sirtki aktivlashtiruvchi moddalar yoki kapitalar aktiv moddalar deb suroqlik (suv) da erib xatto juda kam erisa xam,suroqlik sirtiga shilinib, suroqlik bilan gaz

chegarasidagi (suvning) sirt tarangligini xavoga nisbatan yoki suyoqlik chegarasidagi boshqa modalarga aytiladi. Sirtni aktivlashtiruvchi moddalarni izoxlovchi xususiyatlardan yana biri shuki uning epitiasini umumiy xususiyatlarini o`zgartirishiga nisbatan sirt xususiyatlarini keskin o`zgartirishdir.

Sirtni aktivlashtiruvchi moddalarning ishlatilishiga va eruvchanligiga ko`ra IO.N.SHexter uni uch guruxga bo`ladi:

- Suvda eriydigan sirtni aktivlashtiruvchi maddalar;
- Suvda va yog`da eriydigan sirtni aktivlashtiruvchi moddalar;
- Yog`da eriydigan sirtki aktivlashtiruvchi moddalar.

To`qimachilik sanoatida asosan suvda eriydigan sirtni aktivlashtiruvchi moddalar ishlatiladi. Suvda va yog`da eriydigan sirtki aktivlashtiruvchi moddalar esa boshqa soxalarda ishlatiladi.

Masalan: metallarni karroziyadan (zanglashdan) ximoya qilishda va boshqa o`rovchi moddalar ta`siridan saqlashda qo`llaniladi. Ushbu risola suvda erigan sirtni aktivlashtiruvchi moddalarning va ularni to`qimachilik sanoatida ishlatishga bog`liqdir.

Sirtki aktivlashtiruvchi moddalarning o`ziga xos tomoni shundaki , ular ikki xil funksional guruxdan iborat bo`ladi: bir molikulada qutublik – gidrafil guruxi. Gidrafil guruxi suvda, gidrofil gurux esa yog` va uchivodxarda yaxshi eriydi.

Suvda eriydigan sirtni aktivlashtiruvchi moddalar o`z ichida moddalarning ionlari xarakteriga qarab uch guruxga bo`linadi:

- anion aktiv moddalar;
- kation aktiv moddalar;
- ionlashmaydigan sirtki aktivlashtiruvchi moddalar.

Tabiiy ipak tannarxini pasaytirishning asosiy yo`llarian biri pillaning chuvilishi qobig`ining ivilishini yaxshilashning asosiy yo`llaridan biri suvga turli xil sirti aktivlashtiruvchi moddalar qo`shishdir.

Bizning tatqiqot P-1, P-2, P-3 SHK va NPAV-A turdagi sirtki aktivlashtiruvchi moddalarni pilla qobig`ining ivilishiga va undan olinadigan ipak miqdoriga bog`liqligini aniqlashga bag`ishlangan.

Pillani Madifikatsiya qilish mashinasining ishchi kamerasini takomillashtirish.

Mashina pilla quritish uchun ishlab chiqarilgan taxlil qilib ko`rib chiqiladi. Pillani qabul qilish uchun fabrikaga topshirilganda uning ichidagi g`umbagi o`lmagan bo`ladi.

Agar qabul qilingan pillarni 100° issiqlikdagi pechda ishlov berilmasa ichidagi g`umbagi o`lmaydi va g`umbak pillani teshib chiqishga xasrakat qiladi. Natijada pilladan xom ipak yigirib olishga o`zining salbiy ta`sirini ko`rsatadi. Ushbu kanstruktsiya esa buni oldini olish maqsadida qabul qilingan pillalavrning 100° li temperaturaga 1 soat davomida ishlov beriladi ichidagi g`umbaklari o`ladi va pilla quritiladi. Natijada pillaning sifati oshadi.

Buning keyingi sharti esa pillani sirt faol moddalar bilan madifikatsiya qilinadi.

Biz yaratgan konstruktsiya pillani madifikatsiya qilish sharoiti pilla quritish mashina bilan birgalikda bajarish uchun ko`rib chiqiladi. Pillani quritishga kiritishdan oldin pillani sirti faol moddalar bilan yuvib so`ngra quritishga kiritdik. Oldingi kanstruktsiya pillaga ishlov berish xarakatini ko`p bo`lgani uchun pillaning sifatiga o`zining salbiy tasirini ko`rsatadi. Ushbu kanstruktsiyada 3 ta kechadigan jarayon faqatgina bir marta ishlov berishda bajariladi. Olingan natija esa pillani uzoq muddat sifatli quritishning ta`mirlash va xom ipak chiqindini kamaytiradi.

Mavzuni asoslash.

Hamma tabiiy, sun`iy va sintetik tolalar havoning nisbiy namligiga qarab o`zida ma`lum miqdorda nam saqlaydi. Toladagi nam miqdori havodagi nam miqdoriga bog`liq bo`lishidan tashqari shu tolaning kimyoviy tarkibiga ham bog`liqdir.

Tolalarning o`ziga nam shimib olish xususiyatiga ularning suvda to`la erigan yoki kolloid holatida erigan moddalarni (bo`yoqlar va maxsulotlarni pardoqlashda ishlatiladigan sirtni aktivlashtiruvchi moddalar) o`ziga biriktirib olganligini izoxlabgina qolmay, balki tolalarning mexanik xususiyatiga (mayinligi, g`ijimlanmasligi va egiluvchanligiga) ham ta`sir qiladi.

To`qimachilik mahsulotlarining suvdagi holati suvning sirt tarangligi va suv bilan mahsulot o`rtasidagi sirtlarning ta`sir etuvchi kuchlari bilan izoxlanadi. Ma`lumki, sirdagi molekula ichkaridagi molekulalardan farq qiladi. Ichkaridagi molekulalarning butun atrofini o`ziga o`xshash molekulalar o`rab olgani uchun xamma tomondan bir xil ta`sir ostida bo`ladi.

Sirtni aktivlashtiruvchi moddalar yoki kapillar aktiv moddalar deb suyuqlik (suv)da erib, hatto juda kam erisa ham, suyuqlik sirtiga shimilib, suyuqlik bilan gaz chegarasidagi (suvning) sirt tarangligini havoga nisbatan yoki suyuqlik chegarasidagi boshqa moddaga nisbatan kamaytiruvchi moddalarga aytiladi. sirtfaol aktiv moddalarni izohlovchi hususiyatlaridan yana biri shuki, uning eritmaning umumiy xususiyatlarini o`zgarishiga nisbatan sirt hususiyatlarini keskin o`zgartirishidir.

Sirtfaol aktiv moddalarning ishlatilishiga va eruvchanligiga ko`ra YU.N.SHexter uni uch guruhga bo`ldi:

- suvda eriydigan sirtfaol aktiv moddalarlar;
- suvda va yog`da eriydigan Sirtfaol aktiv moddalarlar;
- yog`da eriydigan Sirtfaol aktiv moddalarlar.

To`qimachilik sanoatida asosan suvda eriydigan Sirtfaol aktiv moddalarlar ilatiladi. Suvda va yog`da eriydigan Sirtfaol aktiv moddalarlar qisman brezentlar tayyorlashda, yog`da eriydigan sirtfaol aktiv moddalarlar esa boshqa sohalarda ishlatiladi. Masalan, metallarni korroziyadan (zanglanishdan) himoya qilishda va boshqa o`yuvchi moddalar ta`siridan saqlashda qo`llaniladi. Ushbu risola suvda eriydigan sirtfaol aktiv moddalarlarning ishlatilishi bag`ishlanadi.

Sirtfaol aktiv moddalarlarning o`ziga xos tomoni shundaki, ular ikki xil funktsional guruhdan iborat bo`ladi: biri molekulada qutblik – gidrofil guruxi, ikkinchisi qutbsiz nidrofob guruhi. Gidrofil guruhi suvda, gidrofob guruhi esa yog` va uglevodorodlarda yaxshi eriydi.

Suvda eriydigan sirtfaol aktiv moddalarlar o`z ichida moddalarning ionlari xarakteriga qarab uch guruhga bo`linadi:

- anion aktiv moddalar:
- kation aktiv moddalar:
- ionlanmaydigan sirtfaol aktiv moddalarlar.

Tabiiy ipak tannarxini pasaytirishning asosiy yo`llaridan biri pillalarning chuvilishini yaxshilaydir. Pillaning chuvilishi esa pilla qobig`ining ivishiga bog`liq.

Pilla qobig`ining ivishini yaxshilashning asosiy yo`llaridan biri suvda turli xil sirtni aktivlashtiruvchi moddalar qo`shishdir. Bizning tadqiqot II-I, II-2, II-3, SHK va NPAV-A turdagi sirtni avtivlashtiruvchi moddalarni pilla qobig`ining ivishini va undan olinadigan ipak miqdoriga bog`liqligini aniqlashga bag`ishlangan.

Ipakchilik va tutchilik ishlarini mashinalashtirish va elektrlashtirish qurtlarni tez etishtirish usulida boqishga o`tish qurt boqar zvenolarni kattalashtirishga imkon beradigan yirik qurtxonalar qurish hamda qurt boqish ishlarini yaxshi uroytirish bilan btr qatorda butun yoz davomida uzliksiz boqish usuli ikki xil bo`ladi.

Birinchi uchulda qurtlar tuxumidan ketma-ket bir necha muddatda ochiriladi. Bunda dastlabki ochirilgan qurtlar beshinchi, keyingi ochirilgani to`rtinchi, bundan keyin ochirilgani uchinchi va yana keyinroq ochirilgani ikkinchi va so`ngi ochirilgani birinchi yoo`da bo`ladi.

SHunday qilib qurtlar ketma-ket etishi bilan yoz bo`yi oldinga va keyin pilla o`rayveradi.

Ikkinchi usulda bir vaqtda ochirilgan qurtlar, pilla o`rab bo`lgandan keyin ikkinchi pilla qurtlari ochirilishiga erishiladi. Bunda bir qurt boqish bilan ikkinchi qurt boqish o`rtasida ozmi-ko`pmi uzunligi bo`ladi. Bu xilda bu yozda 2-3 martagina qurt boqish mumkin. Qurt boqishning bu usullarini amalga oshirish va shu yo`l bilan pillani ko`proq etishtirish qurt barglari doimo etarli bo`lib turish choralari ko`rilgani va tegishli jixozlangan qurt xonalar juda bo`lmagan taqdirdagina muhimdir.

Ipak qurtini butun yoz bo`yi ko`p marta boqish ipakchilikda qurt bargining eng ilg`or progressif usuli bo`lib, ipakchilikda paxtachilik va qishloq xo`jaligini boshqa tarmoqlari bilan birga qo`shib olib borish uchun katta imkoniyat ochib beradi. Qurtni bu usulda boqqanda ko`riladigan ish tig`izligi kamayadi, ya`ni ko`klamda boqiladigan qurtlarning bir qismi yoz va kuzga ko`chiriladi. SHu bilan birga bir binoda qurt bir necha marta boqilib, alohida foydalanishi mumkin. Ko`pgina topshirilgandagina pillalar rangi bo`yicha sortlarga ajratilgan, losdan tozalangan bo`lishi va ichichda yaroqsiz pilla bo`lmasligi kerak. Pillani sifatini oshirish uchun pilla topshiruvchini ishtirokida har gurusning bosh joyidan 500 gr na`muna olinadi. Pilla sifatiga karab 3 navga bo`linadi.

Birinchi navi:

Pilla nuqsonsiz tig`iz bir xil rangda mavjud zot yoki boshqa ipak qurtining o`ziga hos shaklida bo`ladi. Bunday pillani etishtirishning eng keng chokining joyiga nisbatan 5mm gacha kattalikda silliq joyi bo`ladi.

Ikkinchi navi:


Pillaning rangi bir xil yki mavjud zot pilla uchun xos rangdan son boshqacha bu pilla bu pilla tish va son tig`iz nuqsonsiz shakli mavjud zot pillaga xos ko`rinishdan sal boshqacha yoki pilla ustida 5 mm gacha dog` bo`lishi mumkin, ustida etishning eng joyi bo`yicha 10 mm gacha silliq joyi yoki 10 mm gacha dog`i bo`lishi mumkin.

Uchinchi navi: Pillaning shakli mavjud zot yoki boshqa ipak qurtiga xos ko`rinishda va xar xil rangda bo`ladi. Ipak vaqtida qolip bo`lishi mumkin. Nuksonsiz pilla xar xil bo`lishi mumkin, ustida dog`i yoki 5 mm dan ko`p dog`lari bo`lgan pillalar ham shu sortlarga kiradi. Lekin bu dog`lar tushgan joyi pilla ustining bir qismidan oshmasligi kerak. Pillaning eng keng ko`ndalangiga nisbatan 15 mm gacha kattalikda silliq joyi bor: ustundagi choki 15 mm dan katta emas. Pillaning tig`izligi, rangining bir xilligi va po`stida nuqoni bor yo`qligi qo`lda aniqlanadi. Bir necha choki va silliq joyi bo`lgan pillaning sorti shu nuqsonlarning eng katta joyiga qarab aniqlanadi. Qo`shaloq pilla ikkita yoki undan ortiq qurt o`ragan pilladir. Bu dog`larning kelib chiqish sabablaridan, kelib chiqishidan qat`iy nazar ular pilla ustining to`rtidan bir qismidan ko`prog`idan egallaydi. IOpqa pilla bunday pilladan yorug`lik o`tadi va osonlikcha majag`lanadi. G`umbagi o`lgan pilla g`umbagi ustini po`stiga yopishgan pilla ichida dog`i bo`lgan pilla mog`morlangan pilla ustidagi nuqson katta-kichiklagidan qat`iy

nazar mog`ori bo`lgan pilla: juda silliq pilla ustida 5 mm ortiq silliq joyi yoki 15 mm choki bo`lgan choki bo`lgan pilla, pillani dastlabgi ishlash, uni quritishdan iborat.

1.Вални статик мустаҳкамлиги.

Вални статик мустаҳкамлиги аниқлашда унинг хавфли участкаларини ҳисобга олиш зарур. Хавфли участкаларни I – I, II – II, III – III, IV – IV қирқивлари бўйича аниқланади



Қуйидаги формулаларга асосан

$$\sigma_{\text{ит}} = \frac{M_{\text{ит}}}{W_{\text{и}}} \quad \text{ва} \quad \tau_{\text{т}} = \frac{M_{\text{к max}}}{W_{\text{кт}}}$$

Валга таъсир қилаётган номинал ва уринма зўриқишларни аниқлаймиз, шунингдек $\frac{\sqrt{M_{\text{ит}}^2 + M_{\text{к}}^2}}{W_{\text{и}}}$ критериясини ҳисобга олган ҳолда энг хавфли участкаларини топамиз.

Бу ерда: $M_{\text{ит}}$ - хавфли участкадаги эгувчи момент;

$W_{\text{и}}$ ва $W_{\text{кт}}$ - хавфли участкадаги эгилиш ва буралишдаги ыаршилиқ моменти;

$M_{\text{к max}}$ - қабул қилинган зўриқиш коэффиценти к 1,6-1,8 ли номинал буровчи моментнинг, максимал буровчи моменти.

энг катта зўриқишдаги валнинг ён томонлардаги Номинал ва уринма зўриқишлардаги мустаҳкалик захираси

$$n_{\text{тс}} = \frac{\sigma_{\text{т}}}{\sigma} \quad \tau_{\text{тт}} = \frac{\tau_{\text{т}}}{\tau}$$

Статик мустаҳкамликдаги умумий мустаҳкамлик захираси

$$n_T = \frac{n_{T\sigma} n_{T\tau}}{\sqrt{n_{T\sigma}^2 + n_{T\tau}^2}} \geq n_{Tmin}$$

Ст.3 пўлат учун $\frac{\sigma_T}{\sigma} \approx 0.6$, у холда $n_2 = 1.4 - 1.8$. валнинг конструкциядаги жавобгарлигини ҳисобга олган холда $n_{Tmin} = 2.5 - 3$ деб оламиз.

Валнинг буровчи моменти

$$K_K = 9.55 * 10^5 \frac{N}{n}$$

Бу ерда N -электродвигател қуввати, квт, n - валнинг айланиш частотаси.

2.Бўғлаш машиналарини технологик параметрларини ҳисоблаш.

-пиллани сувга тўйиш даражасини аниқлашда фойдаланиладиган! коэффицицентлар.

$$R = \frac{V_B}{V_{CB}} * 100 [\%]$$

Ёки

$$R1 = \frac{m_1 - m_2}{m_n} * 100 [\%]$$

табки

г Т, температу

Бу ерда: m_1 – сувли пилланинг оғирлиг гр.
 m -пилланинг оғирлиги гр.

Бўғлаш машинасининг иш унумдорлигини аниқлаш.

$$П = \frac{V * 2 m * 60}{4 * t * 1000} \text{ кпв [кг/соат]}$$

Ёки

$$П = \frac{n * 2 m * 60}{L * 1000} \text{ кпв [кг/соат]}$$

Бу ерда: V –бўғлаш машинасидаги конвейрни ҳаракат тезлиги, м/ мин.
 m - битта кассетадаги пилланинг пилланинг оғирлиги гр.
 t - конвейрни тўла айланиш вақти, мин.
4-занжирдаги звенолар сони.
 n –машинадаги кассеталар сони.
 L –занжир қадами.
кпв –фойдали вақт коэффициенти.
2-кассетадаги корзиналар сони.

3 Маҳкамлаш болтлари Ҳисоби

Маҳкамлаш болтлари Ҳисоблашда унинг диаметрини топиш керак бўлади. Бунинг учун биз мустаҳкамлик тенгламасини кўриб чиқамиз

$$\frac{\pi d^2}{4} [\sigma_p] = P$$

Ушбу формуладан $d = \sqrt{\frac{4P}{\pi[\sigma_p]}}$

$[\sigma_p] = 400 \text{ кг/см}^2$ – материалнинг чўзилишдаги рухсат этилган кучланиши; P - таъсир Ҳилаётган куч

$$d = \sqrt{\frac{4 \cdot 500}{3.14 \cdot 400}} = 6.7 \text{ мм}$$

Ҳабул Ҳиламиз $d = 8 \text{ мм}$

4. Пружина Ҳисоби

Бошланғич маълумот учун Ҳуйидагиларни оламиз:

Энг катта буровчи момент $M_2 = 550 \text{ кг*мм}$; буралишдаги энг катта бурчак $\alpha = 140^\circ$; пружина 1- синф ва 3-разрядда.

Эгилишдаги рухсат этилган кучланиш

$$[\sigma_{из}] = 1.25[\tau_3] = 1.25 \cdot 56 = 70 \text{ кг/мм}^2$$

Пружина индексини аниқлашда D_0 - пружинани ўрта диаметри ва пружина симининг d - диаметрлари керак бўлади

$$c = \frac{D_0}{d} = 8 \text{ Ҳабул Ҳиламиз.}$$

Витоклар формаси коэффиценти

$$K = \frac{4c - 1}{4c - 4} = \frac{4 \cdot 8 - 1}{4 \cdot 8 - 4} = 1.11$$

Симнинг диаметри

$$d = \sqrt{\frac{32M_{кр}K}{\pi[\sigma_{из}]}} = \sqrt{\frac{32 \cdot 550 \cdot 1.11}{3.14 \cdot 70}} = 2.8 \text{ мм, 3мм деб оламиз.}$$

Пружина диаметрлари

$$D_0 = cd = 8 \cdot 3 = 24 \text{ мм}$$

$$D = D_0 + d = 24 + 3 = 27 \text{ мм}$$

$$D_1 = D_0 - d = 24 - 3 = 21 \text{ мм}$$

M_2 бўйича нормал кучланиш

$$[\sigma_{из}] = \frac{32M_2K}{\pi d^3} = \frac{32 \cdot 550 \cdot 1.11}{3.14 \cdot 3^3} = 69 \text{ кг/мм}^2$$

Ишчи витоклар сони

$$n = \frac{100K\alpha_2}{1.8c[\sigma_{из}]} = \frac{100 \cdot 1.11 \cdot 140}{1.8 \cdot 8 \cdot 69} = 15.6 = 16$$

Буралиш бурчаги

$$\alpha_3 = 1.25\alpha_2 = 1.25 \cdot 140 = 175^\circ$$

Энг кичик витоклар сони

$$n_{min} = \left(\frac{\alpha_3}{123.1} \right)^4 = \left(\frac{175}{123.1} \right)^4 = 4.1$$

Энг кичик ишчи буровчи момент

$$M_1 = 0.2M_2 = 0.2 \cdot 550 = 220$$

Энг кичик буралиш бурчаги

$$\alpha_1 = \frac{\alpha_2 M_1}{M_2} = \frac{140 \cdot 220}{550} = 56^\circ$$

Витоклар оралиғи

$$\delta = 0.5 \text{ мм}$$

Пружина баландлиги

$$H_0 = n(d + \delta) = 16(3 + 0.5) = 56 \text{ мм}$$

Чегаравий рухсат этилган буровчи момент

$$M_3 = 1.25M_2 = 1.25 \cdot 550 = 687 \text{ кг/мм}^2$$

Пружина ўадами

$$t = d + \delta = 3 + 0.5 = 3.5 \text{ мм.}$$

МАШИНАСОЗЛИК КОРХОНАЛАРИДА ЁНГИННИ ОЛДИНИ ОЛИШГА ҚАРАТИЛГАН ЧОРА-ТАДБИРЛАР

Ёнгинлар саноат корхоналари, халқ хўжалигини ҳамма тармоқлари, қишлоқ хўжалиги ва турар жой массивларида юз бериши мумкин бўлган, етказадиган зарари жиҳатидан табиий офатларга тенглишиши мумкин бўлган ҳодиса ҳисобланади. Ёнгинлар катта моддий зарар келтириши билан бирга оғир бахтсиз ҳодисалар заҳарланиш, куйиш билан билан бирга кишилар ҳаётини олиб кетган ҳоллар кўплаб учрайди.

Шунинг учун ҳам ёнгинга қарши кураш барча совет гражданининг умумий бурчи ҳисобланади ва бу ишлар давлат миқёсида амалга оширилади.

Умуман ёнгин чиқмаслигини таъминлаш, ёнгин чиққан тақдирда ҳам унинг ривожланиб, тарқалиб кетмаслиги чора-тадбирларини кўриш, биринчидан моддий бойликларни сақлаб қолишга қаратилган чора-тадбирлар бўлса, иккинчи томонидан эса, инсон саломатлиги ва унинг ҳаётини сақлаб қолиш чора-тадбирлари амалга оширилиши, бу масалалар меҳнатни муҳофаза қилишнинг таркибий қисми эканлигидан далолат беради.

Бизнинг вазифамиз ёнгин ҳақида асосий тушунчалар бериш билан бирга, унга қарши самарали кураш олиб бориш, ёнгинни ўчиришда қўлланиладиган бирламчи воситалар, ҳамда ёнгинга қарши қўлланиладиган ҳар хил тадбирлар билан студентларни таништиришга қаратилган.

Ёниш жараёни. Ёниш деб, ёнувчи моддалардаги мураккаб оксидланиш жараёнида бир моддадан иккинчи моддага айланиши катта миқдорда иссиқлик ва нурланиш ажралиши билан кечадиган ҳодисага айтилади.

Ёниш бўлиши учун асосан уч омил: 1) ёнувчи модда; 2) ёндирувчи муҳит; 3) қиздириш жараёни бўлиши шарт. Ёнувчи модда деярли ҳамма жойда бор: булар ҳар хил ёғоч маҳсулотлари ва жиҳозлари, қоғоз маҳсулотлари, химиявий моддалар, ёнувчи суюқликлар ва умумий ҳар қандай органик моддалар ёнади. Ёндирувчи муҳит бу бизни ўраб турган ҳаво таркибидаги кислород бўлиб, у ҳам ҳамма вақт мавжуд.

Баъзи бир ҳолларда ёниш жараёни хлор, бром каби оксидловчилар муҳитида ҳам рўй бериши мумкин.

Энди қиздириш жараёни бўлса, ёниш реакцияси вужудга келади. Бунинг учун маълум миқдорда қиздириш манбаъи бўлиши керак. Реакция бошлангандан кейин, реакция натижасида ҳосил бўлган исиқлик ёнишнинг давом этишини таъминлайди. Шунинг учун ёнаётган зона алангаланиш манбаъи ва ёниш зонаси ҳисобланади. Бу зона ҳарорати қанча катта бўлса, ёниш шунча тез бўлади.

Ёниш жараёни асосан икки хил бўлиши мумкин. Биринчисида қаттиқ жисимлари ёниш жараёнида ёнаётган модда ҳаво муҳитидан ажралган ҳолда бўлади. Кислород билан бирикиш ёниш зонасидаги исиқлик натижасида ўтади ва бу бириккан модда(ёки ёниш маҳсулотлари)қизиган ҳолатда юқорига қараб йўналади ва ўз ўрнига ҳаво билан кислородни киришига сабабчи бўлади ва бу ҳолат ёнувчи модда тамом бўлгунча давом этиши мумкиин. Бу ёниш ҳаво ҳаракати натижасида ёниш зонасини кислород билан таъминлаганлиги учун диффузия ёниши деб юритилади. Бундай ёниш ёғоч, кўмир, шам ва бошқалар ёнганда кузатиш мумкин.

